

## AHOLI ORASIDA HUQUQIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHDA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI FAOLIYATINING TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI

**Ismailov Sarvarbek Anvarbekovich,**

*Andijon davlat universiteti Huquq-iqtisod fakulteti dekani,  
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori., PhD*

**Maxkamova Munavvarxon Alisher qizi,**

*Huquq-iqtisod fakulteti Menejment yo'nalishi  
2-bosqich 201-guruh talabasi*

**Annotatsiya.** Mazkur ishda aholi orasida huquqiy madaniyatni shakllantirish va rivojlantirishda fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining roli, mavjud muammolari va takomillashtirish istiqbollari o'rganiladi. Tadqiqotda nodavlat notijorat tashkilotlar, jamoat birlashmalari, ommaviy axborot vositalari va boshqa fuqarolik institutlarining huquqiy ongni oshirishdagi samaradorligi tahlil qilinadi. Shuningdek, huquqiy madaniyatni kuchaytirish uchun ushbu institutlar bilan davlat organlari hamkorligini rivojlantirish, huquqiy targ'ibot, trening va seminarlar tizimini takomillashtirish yo'llari ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** huquqiy madaniyat, fuqarolik jamiyati institutlari, huquqiy ong, jamoat birlashmalari, nodavlat tashkilotlar, huquqiy targ'ibot, huquqiy ta'lim, davlat-fuqarolik hamkorligi, fuqarolik faolligi, ijtimoiy rivojlanish.

**Аннотация.** В данной работе исследуются роль, существующие проблемы и перспективы совершенствования деятельности институтов гражданского общества в формировании и развитии правовой культуры среди населения. В исследовании анализируется эффективность негосударственных некоммерческих организаций, общественных объединений, средств массовой информации и других институтов гражданского общества в повышении правосознания. Также рассматриваются пути развития сотрудничества между данными институтами и государственными органами для укрепления правовой культуры, а также совершенствования системы правовой пропаганды, тренингов и семинаров.

**Ключевые слова:** правовая культура, институты гражданского общества, правосознание, общественные объединения, негосударственные организации, правовая пропаганда, правовое образование, государственно-гражданское партнёрство, гражданская активность, социальное развитие.

**Abstract.** This paper examines the role of civil society institutions in the formation and development of legal culture among the population, as well as existing problems and prospects for their improvement. The study analyzes the effectiveness of non-governmental non-profit organizations, public associations, mass media, and other civil institutions in raising legal awareness. Furthermore, it considers ways to enhance the legal culture by developing cooperation between these institutions and state bodies, and by improving the system of legal outreach, training, and seminars.

**Keywords:** legal culture, civil society institutions, legal consciousness, public associations, non-governmental organizations, legal outreach, legal education, state-civil society partnership, civic engagement, social development.

**Kirish.** Inson huquqlarini himoya qilishda ayniqsa **advokatura** institutining roli katta hisoblanadi. Advokatura o'z nomi bilan, avvalambor, inson huquqlarining

himoyachisi hisoblanadi. O‘zbekistonda advokatura institutini rivojlantirishga katta ahamiyat qaratilmoqda.

Advokatura instituti vakolatlarining tobora kengayib va faoliyatining rivojlanib borishi inson manfaatlari, huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning nosudlov mexanizmi yanada takomillashib borayotganidan va kuchli fuqarolik jamiyatining poydevori mustahkamlanib borayotganidan darak beradi.

Mamlakatdagi demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirishda nodavlat notijorat tashkilotlarining ahamiyati va tutgan o‘rni haqida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010-yil 12-noyabr qo‘shma majlisida “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi” yuzasidan qilgan ma’ruzasida shunday deydi: “Fuqarolik institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari hozirgi kunda demokratik qadriyatlar, inson huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarni himoya qilishning muhim omiliga aylanmoqda, fuqarolarning o‘z salohiyatlarini ro‘yobga chiqarishi, ularning ijtimoiy, sotsial-iqtisodiy faolligi va huquqiy madaniyatini oshirish uchun sharoit yaratmoqda, jamiyatda manfaatlar muvozanatini ta’minlashga ko‘maklashmoqda”.

**Adabiyotlar tahlili.** Advokatura instituti O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan konstitutsiyaviy institut sifatida mustahkamlab qo‘yilgan. 1996-yil 27-dekabrda “Advokatura to‘g‘risida”gi, 1998-yil 25-dekabrda “Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to‘g‘risida”gi qonunlar qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2008-yil 1-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida advokatura institutini yanada isloh qilish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-3993-sonli Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining 2008 yil 12 sentabrda bo‘lib o‘tgan Ta’sis konferensiyasida O‘zbekiston Advokatlar Assotsiatsiyasi negizida O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasini tashkil etish haqida qaror qabul qilingan edi.

2009-yilning 1-yanvaridan «Advokatura instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni kuchga kirdi. Bugungi kun voqeligi shundan dalolat beryaptiki, shiddat bilan rivojlanayotgan hayot advokatura oldiga yanada keng ko‘lamli vazifalarni qo‘ymoqda va bu holat uning imkoniyatlari kengaytirilishini taqozo etmoqda. Bu borada xalqaro amaliyotlarda sinovdan o‘tgan va deyarli barcha rivojlangan davlatlarning huquqiy tizimlarida qo‘llanilayotgan qonun-qoidalar bizning qonunchiligimizga ham tatbiq etilishi mamlakatimiz huquqiy tizimi o‘z taraqqiyot davrining yangi bosqichiga chiqqanidan darak bermoqda.

2008-yilning 12-sentabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining Ta’ sis konferensiyasi bo‘lib o‘tdi. Unda O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasini tashkil etish to‘g‘risida qaror qabul qilindi.

Shuni ham alohida ta’kidlash lozimki, bugungi kunda mamlakatimizda advokatlik faoliyati bu sohadagi xalqaro huquqiy normalar va tamoyillar, jumladan, BMTning 1966 yilgi Fuqarolik va siyosiy huquqlari bo‘yicha xalqaro pakti (14-modda, 3-bandi) hamda 1990-yilgi “Yuristlar roliga taalluqli asosiy tamoyillari”da belgilab qo‘yilgan standartlar asosida rivojlanib bormoqda.

2005-yili O‘zbekistonda NNTlar faoliyatlarini muvofiqlashtirish maqsadida O‘zbekiston Nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi tashkil etildi. Turli xil yo‘nalishlarda (ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, huquqiy, ayollar, yoshlar, ekologik va boshqalar) faoliyat ko‘rsatib, jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab oluvchi O‘zbekistonning 320 dan ortiq NNTlari, bugungi kunda Assotsiatsiyaning a‘zolari hisoblanadi. Assotsiatsiya huzurida NNTlarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi tashkil etilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotda tizimli tahlil, qiyosiy-huquqiy tahlil hamda sotsiologik yondashuv metodlaridan foydalanildi. Fuqarolik jamiyati institutlarining huquqiy madaniyatni shakllantirishdagi roli normativ-huquqiy hujjatlar va amaliy faoliyat misolida o‘rganildi. Shuningdek, mavjud muammolarni aniqlash va istiqbolli yo‘nalishlarni belgilashda tahliliy va umumlashtiruvchi metodlardan foydalanildi.

**Tahlillar va natijalar.** O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I. Karimov Oliy Majlisning 2-chaqiriq 1-sessiyasida so‘zlagan nutqida jamiyatni demokratlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirishda demokratik institutlar va jamoat tashkilotlarining rolini kuchaytirish to‘g‘risida uzoq yillarga mo‘ljallangan dasturini bayon qildi:

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, nodavlat va jamoat tashkilotlarining rivojlangan tizimi jamiyatda manfaatlar uyg‘unligini qaror toptirish va mustahkamlashga xizmat qilishi lozim. Bu tizim davlat tuzilmalari faoliyatini muayyan ma’noda to‘ldirishi, ya’ni ularga nisbatan ma’lum bir muvozanatni ta’minlovchi vosita vazifasini bajarishi kerak.

Odamlarning siyosiy ongi, siyosiy madaniyati va siyosiy faolligi yuksalib borgan sari, davlat o‘z vazifalarini nodavlat tuzilmalari va fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o‘tkazib borishi zarur”.

Nodavlat notijorat tashkilotlari respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarni o‘z a‘zolari ishtirokida tahlil qilishlari va ularga nisbatan o‘z fikrlarini bildirishlari, islohotlar natijasida o‘z oldilarida turgan vazifalarni aniqlab olishlari va jamiyatning barcha a‘zolarini ularni bajarishga jalb etishlari lozim. Bu esa, o‘z navbatida, jamiyatdagi barcha kuchlarni yagona maqsad – vatan taraqqiyoti, xalq farovonligi va yurt tinchligi yo‘lida birlashtiradi.

Nodavlat notijorat tashkilotlarining vakolatlari kengayib va faoliyati rivojlanib borishi inson manfaatlari, huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning nosudlov mexanizmi yanada takomillashib borayotganidan va kuchli fuqarolik jamiyatining poydevori mustahkamlanib borayotganidan darak beradi.

Shu yerda alohida qayd etish kerakki, bugungi kunda mamlakatda boshqa sohalar kabi, aholining huquqiy madaniyati, shu jumladan inson huquqlari madaniyati darajasini o'rganishga ixtisoslashgan fuqarolik jamiyati institutlari ham shakllangan. Ularga misol ta'riqasida 1997-yilda tashkil etilgan "Ijtimoiy fikr" jamoatchilik markazini, 2003-yilda Fuqarolik jamiyatini o'rganish instituti sifatida tashkil etilib, 2011-yilda Fuqarolik jamiyati shakllanishini monitoring qilish mustaqil instituti sifatida qayta tashkil etilgan nodavlat tashkilotlarini misol qilib keltirish mumkin. Mazkur institutlar o'z faoliyati davomida turli sohalarda sotsiologik tadqiqotlar olib borish yo'li bilan aholining muayyan sohaga, muayyan ijtimoiy, siyosiy va boshqa sohalardagi muammolarga nisbatan ijtimoiy fikrini o'rganib kelmoqdalar. Ammo, shu qayd etish kerakki, inson huquqlari madaniyati sohasida aholining inson huquqlari madaniyatini darajasini aniq ko'rsatib beruvchi tadqiqotlar o'tkazilgani yo'q, agar o'tkazilgan bo'lsa ham, keng e'lon qilinmagan. Albatta, "Ijtimoiy fikr" jurnali orqali "Ijtimoiy fikr" jamoatchilik markazi ayrim tadqiqotlarini, shuningdek, huquqiy madaniyat bilan bog'liq ayrim tadqiqotlarining natijalarini e'lon qilib boradi. Ammo, bu tadqiqotlar butun aholini qamrab olmagan va ma'lum bir guruh doirasida o'tkazilgan holos. Ikkinchidan esa, butun aholining inson huquqlari bo'yicha madaniyatining darajasini aniqlashni maqsad qilib olmagan. Shuning uchun ham mazkur institutlar tomonidan, aholining inson huquqlari madaniyatini qay darajada ekanligini belgilab beruvchi va inson huquqlari madaniyatini rivojlantirishning aniq yo'llarini ko'rsatib beruvchi sotsiologik tadqiqotlar amalga oshirilishi, bu tadqiqotlarning natijalari keng e'lon qilinishi maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Inson huquqlari haqida ko'p fikrlar bildirilayotgan, inson huquqlarini himoyalash borasida ko'plab amaliy ishlar qilinayotgan yoki davlat tomonidan inson huquqlarini yanada kengroq ta'minlashga ustuvor ahamiyat qaralayotgan bo'lsa-da, afsuski, ayrim hollarda inson huquqlarining buzilishi, inson huquqlarini amalga oshirish bilan bog'liq tamoyillarni to'liq tatbiq etilmasligi bilan bog'liq salbiy holatlar ham amaliyotda uchrab turibdi.

Bunday salbiy holatlarning oldini olish, inson huquqlarini mukammal darajada himoya qilish, inson uchun eng munosib turmush tarzini, farovon hayot sharoitini yaratib berish maqsadida davlat tomonidan inson huquqlari madaniyatini shakllantirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur masalaga "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi"da ham alohida e'tibor qaratildi va unda shunday deyiladi: "...Inson huquqlari sohasida milliy harakat dasturini ishlab chiqish dolzarb ahamiyatga ega. Ushbu dastur, eng avvalo, huquqni

muhofaza qilish va nazorat organlari tomonidan inson huquq va erkinliklarining himoya qilinishini ta'minlash, jamiyatda inson huquqlari bo'yicha madaniyatni shakllantirish va shu kabi boshqa sohalariga oid qonunlarga rioya etilishi ustidan jamoatchilik monitoringini olib borishga qaratilgan chora-tadbirlarni o'zida mujassam etishi kerak.

Demak, mamlakatimizda kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish barobarida inson huquqlari madaniyatini yuksaltirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Zero, inson huquqlarini amalda to'liq ta'minlamasdan turib, fuqarolik jamiyatini qurib bo'lmaydi. Albatta, inson huquqlar madaniyati avvalo davlat organlari xodimlari ongida shakllanishi kerak.

Mamlakatda inson huquqlarining himoya qilinishi bilan bog'liq ishlarning nechog'lik samaradorligi, uning o'ziga xosligi birinchi navbatda, davlat organlarining fuqarolarga munosabatida o'z ifodasini topadi. Shuningdek, aholi mazkur holatga baho berishda birinchi navbatda, huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatiga e'tibor qaratadi. Shunday ekan, avvalo davlat va nazorat organlari xodimlarining inson huquqlariga munosabatini, qarashlarini o'zgartirish lozim. Bu albatta, huquqni muhofaza qilish idoralari xodimlarining ongida inson huquqlari madaniyatini yuksaltirishdan boshlanadi.

Fikrimizcha, davlat va nazorat organlari faoliyatida inson huquqlariga nisbatan hurmatni shakllantirish, huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining inson huquqlari madaniyatini yuksaltirish, ular faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish eng maqbul usuldir. Mamlakatimizda fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatiga keng yo'l ochib berilayotgan bugungi sharoitda ular tomonidan amalga oshiriladigan jamoatchilik nazoratining yangi shakllari va usullarini yaratish inson huquqlari madaniyatini shakllantirishda muhim omil sifatida xizmat qiladi. Jamoatchilik nazorati davlat organlarining inson huquqlarini amalga oshirishda nechog'lik qonuniy harakatlanayotganligini, bu boradagi muammolarni aniq aks ettiradi. Uning natijalari asosida istiqbolli yo'nalishlarni belgilash va bu sohada yangi islohotlarni amalga oshirish mumkin.

Mamlakatda, ya'ni huquqni muhofaza qiluvchi organlarning inson huquqlari bo'yicha faoliyatini yanada takomillashtirish, bu boradagi faoliyatni muvofiqlashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tashkil etilgan "Huquqni muhofaza qiluvchi va boshqa davlat organlari tomonidan inson huquqlari va erkinliklariga rioya etilishining holatini o'rganish bo'yicha Idoralararo ishchi guruhi", jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirishda bugun o'zining munosib o'rnini topdi.

Jamiyatda huquqiy madaniyatni, shuningdek, inson huquqlari madaniyatini shakllantirishda, O'zbekistondagi inson huquqlari bo'yicha milliy institutlarning faoliyati ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ular faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biri inson huquqlari va erkinliklari masalalari bo'yicha huquqiy ma'rifiy ishlar hisoblanadi. Mazkur institutlar jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish bilan bog'liq o'z faoliyatlarini,

inson huquqlari bo'yicha tadbirlar tashkil etish va ularda ishtirok etish; sudlar, huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari, nodavlat tashkilotlari vakillarini inson huquqlari bo'yicha o'qitish; inson huquqlari va erkinliklari masalalari bo'yicha nashr qilinadigan maxsulotlarni chop etish; inson huquqlariga rioya qilish va himoya qilishning dolzarb masalalari bo'yicha OAVda chiqishlar qilish, orqali amalga oshirmoqda.

Mamlakatda inson huquqlarining himoya qilinishi bilan bog'liq ishlarning nechog'lik samaradorligi, uning o'ziga xosligi birinchi navbatda, davlat organlarining fuqarolarga munosabatida o'z ifodasini topadi. Shuningdek, aholi mazkur holatga baho berishda birinchi navbatda, huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatiga e'tibor qaratadi. Shunday ekan, avvalo davlat va nazorat organlari xodimlarining inson huquqlariga munosabatini, qarashlarini yanada o'zgartirish lozim. Bu albatta, huquqni muhofaza qilish idoralari xodimlarining ongida inson huquqlari madaniyatini yuksaltirishdan boshlanadi. Mazkur jarayonda, ya'ni, davlat hokimiyati va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida inson huquqlari madaniyatini yanada yuksaltirishga qaratilgan ishlarda ular faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish eng maqbul usuldir. Mamlakatimizda fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatiga keng yo'l ochib berilayotgan bugungi sharoitda ular tomonidan amalga oshiriladigan jamoatchilik nazoratining yangi shakllari va usullarini yaratish inson huquqlari madaniyatini shakllantirishda muhim omil sifatida xizmat qiladi. Jamoatchilik nazorati davlat organlarining inson huquqlarini amalga oshirishda nechog'lik qonuniy harakatlanayotganligini, bu boradagi muammolarni aniq aks ettiradi. Uning natijalari asosida istiqbolli yo'nalishlarni belgilash va bu sohada yangi islohotlarni amalga oshirish mumkin.

Shuning uchun ham, bugungi kunda, yuqoridagilardan kelib chiqib, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" ilgari surgan g'oyalarni hayotga jalb etish uchun "Inson huquqlari madaniyatini shakllantirish to'g'risida"gi, "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi qonunlarni qabul qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, inson huquqlariga oid madaniyatning shakllanishi birinchidan, fuqarolarning subyektiv huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini to'liq ta'minlashga, ikkinchidan, huquqiy demokratik davlat va erkin fuqarolik jamiyatini barpo etishga, uchinchidan, mamlakatimizning huquqiy taraqqiyotiga va nihoyat to'rtinchidan, O'zbekistonning dunyodagi rivojlangan, demokratik mamlakatlar qatoridan munosib o'rin egallashiga hissa qo'shadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Karimov I. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza. 2010 yil 12 noyabr. – T.: O'zbekiston, 2011. – B. 42.
2. Karimov I.A. «O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi». T.13. – T.: O'zbekiston, 2005. – B.181–182.
3. Qarang: O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi» mavzusidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi. 2010-yil 13-noyabr.
4. Raxmonqulov X, Raxmanov A. Prava cheloveka: istoriya i sovremennost. – T., Izd. « Mir ekonomiki i pravo», 1998. B. 217.

